

INNOVATSION MENEJMENT TIZIMINI JORIY ETISH ORQALI OLIY TALIM RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH

Asqarov Asqarali Qahramonovich

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Texnik jihatdan tartibga solish agentligi, Menejment tizimlarini joriy etishni muvofiqlashtirish bo'limi boshlig'i

Annotatsiya

Ushbu maqolada hozirgi globallashuv va raqamli iqtisodiyot davrida oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirish innovatsion menejment tizimini joriy etish orqali amalga oshirilishi, oliy ta'limda innovatsion menejment tushunchasi, uning muhim jihatlari va oliy ta'lim muassasalarining xalqaro va milliy reytinglarda yuqori o'rin egallashdagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: innovatsion menejment, oliy ta'lim, raqobatbardoshlik, raqamli transformatsiya, ta'lim sifatini oshirish, universitet boshqaruvi.

Аннотация

В данной статье анализируется повышение конкурентоспособности высших учебных заведений в эпоху глобализации и цифровой экономики путем внедрения системы инновационного менеджмента. Рассматривается понятие инновационного менеджмента в высшем образовании, его ключевые аспекты, а также его значение для достижения высоких позиций в национальных и международных рейтингах высших учебных заведений.

Ключевые слова: Инновационный менеджмент, высшее образование, конкурентоспособность, цифровая трансформация, повышение качества образования, управление университетом.

Abstract

This article analyzes how the competitiveness of higher education institutions can be enhanced in the era of globalization and the digital economy through the implementation of an innovative management system. It explores the concept of innovative management in higher education, its key aspects, and its significance in securing high positions in national and international rankings for higher education institutions.

Keywords: Innovative management, higher education, competitiveness, digital transformation, quality enhancement in education, university governance.

KIRISH

Hozirgi kunda oliy ta'lim tizimi globallashuv, raqamli transformatsiya va mehnat bozorining tezkor o'zgarishlari ta'sirida jadal rivojlanmoqda. Universitetlar nafaqat bilim berish markazlari, balki innovatsiya va tadqiqotlarning asosiy markazlariga

aylanib bormoqda. Shu bilan birga, talabalar va professor-o‘qituvchilar uchun qulay akademik muhit yaratish, ta’lim sifatini oshirish, ilmiy izlanishlarni tijoratlashtirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish oliy ta’lim muassasalarining raqobatbardoshligini belgilaydi.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, oliy ta’lim muassasalarining muvaffaqiyati innovatsion yondashuvlarning joriy etilishi va menejment tizimining zamon talablariga moslashtirilishiga bog‘liq. Innovatsion menejment – bu universitetlar faoliyatining barcha jabhalarini yaxshilashga qaratilgan kompleks yondashuv bo‘lib, ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish, texnologik inqilobdan foydalanish va tashkiliy boshqaruvni takomillashtirishni o‘z ichiga oladi. Universitetlarning raqobatbardoshligini oshirish uchun innovatsion menejment tizimi orqali resurslarni samarali taqsimlash, ta’lim dasturlarini mehnat bozori talablariga moslashtirish va tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish zarur.

O‘zbekistonda oliy ta’lim sohasida islohotlar jadal olib borilayotgani va xalqaro standartlarga moslashish jarayoni davom etayotgani hisobga olinsa, universitetlarda innovatsion boshqaruv modellarini joriy etish masalasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mamlakatda ta’lim sifatini oshirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini kuchaytirish va universitetlarning biznes hamjamiyat bilan hamkorligini mustahkamlash bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da ham Oliy ta’lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va boshqaruv faoliyatini takomillashtirish yo‘nalishida oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy boshqaruv modellarini joriy etish, ta’lim jarayonini samarali tashkil etish va boshqaruvning innovatsion usullarini qo‘llash nazarda tutilganligi ham ushbu mavzuning dolzarbligini aks ettiradi[1].

Ushbu maqolada innovatsion menejment tizimini oliy ta’lim muassasalarida joriy etishning zarurati, uning asosiy yo‘nalishlari va uning universitetlarning raqobatbardoshligiga ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, xalqaro tajriba va O‘zbekiston sharoitida innovatsion menejment modellarini amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlari muhokama qilinadi hamda muvaffaqiyatli joriy etish uchun amaliy tavsiyalar beriladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta’lim raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion menejment tizimini joriy etish bo‘yicha bir qator olimlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan bo‘lib ular oliy ta’lim tizimi raqobatbardoshligi bo‘yicha turli xil fikrlarni bildirgan.

Giacomo Andolfi Innovatsiyalar qilish qobiliyati tashkilotlarda ularning samaradorligini, mahsuldorligini va shu bilan uzoq muddatli barqarorlik potensialini oshiradigan asosiy raqobatdosh ustunlikdir-deya ta’rif beradi. Biroq, zamonaviy iqtisodiyotda boshqa tarmoqlarning jadal kengayishi xizmat ko‘rsatishning sohasiga innovatsiyalarni qo‘llashga e’tibor qaratish zaruriyatini paydo qildi. Axborotning rivojlanishi va boshqa ta’sirlar, bakalavriat va magistratura talabalari uchun nazariy hamda amaliy talablar doimiy ravishda rivojlanib borayotganligi, bu oliy ta’lim muassasalarini o‘z o‘quv dasturlarini doimiy ravishda kengaytirish va yaxshilashni,

tadqiqot natijalarini va biznes hamjamiyatiga xizmat ko'rsatishni talab qilayotganligini tahlil qilgan[2].

Nur Aedi va boshqalar o'zlarining tadqiqot ishlarida Oliy ta'limning inson resurslarini rivojlantirishning hozirgi yo'nalishi mehnat bozori ehtiyojlariga mos keladigan kompetensiyalarni amalga oshirishga olib kelishi kerak ekanligini, shunda oliy ta'lim sifati maqsadlari mutlaqo zarur va ulardan biri kompetensiyani kuchaytirish hamda oliy ta'lim innovatsiyalari orqali amalga oshirilishini ta'kidlaydi[3].

Yuliia Matviyeiyeva, Svitlana Rybalchenko va Eduard Bohdanlarning "raqamli transformatsiya shartlarida oliy ta'lim muassasalarini innovatsion boshqaruv strategiyalari" nomli ilmiy maqolasida ta'lim sohasiga sezilarli o'zgarishlar olib kelinganligini, bu ta'lim muassasalarining tashqi muhitidagi o'zgarishlarga o'zlarining moslashuvchanliklarini talab qildi. Ushbu o'zgarishlar ta'lim tizimi va shakllariga texnologiyalar hamda yondashuvlarning doimiy faol rivojlanishi bilan bog'liqligini va ushbu sohadagi tadqiqotlar oliy ta'lim muassasalariga zamonaviy ta'lim muammolariga samarali moslashish va raqobatbardoshlikni yuqori darajada ushlab turishi bo'yicha yordam beradigan strategiyalarni ishlab chiqish bo'yicha tadqiqot olib borgan[4].

MDH davlatlari olimlaridan T.V. Klochkova raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligi muammosiga bag'ishlangan tadqiqot ishida axborot jamiyati rivojlanishi bilan ta'limning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati ortib borayotganligini va ushbu jarayon barcha sohalarining rivojlanishi va holatiga ta'sirini tahlil qiladi. Shu bilan birga raqamli universitet modeli tushunchasi, ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish nafaqat ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini sezilarli darajada yaxshilashi, balki pirovardida oliy ta'limga asoslangan ilmiy va ishlab chiqarish kadrlarini tayyorlash sohasiga ta'sir davlat yetakchiligini ta'minlashini ta'kidlaydi[5].

Garanin M.A. texnologik rivojlanish uchun kadrlar tayyorlash sohasida tizimli o'zgarishlarni amalga oshirishga qodir bo'lgan hududiy universitetlarning jamoalarini yaratish va rivojlantirish orqali oliy ta'lim muassasasini yanada rivojlantirish uchun harakat vektorlarini aniqlashga zarurligini tahlilini amalga oshirgan[6].

O'zbekiston Respublikasi olimlari tomonidan respublikamizda Oliy ta'lim raqobatbardoshligini takomillashtirish masalalari o'rganilgan bo'lib, ta'limni boshqarishning intellektual axborot tizimini rivojlantirish, xorijiy va milliy universitetlarning o'qitish tajribasini ishlab chiqishda ta'limning umumiy tamoyillarini hisobga olish kabi jarayonlar tahlili amalga oshirilgan[7]. Ammo innovatsion menejment tizimini joriy etish orqali oliy ta'lim raqobatbardoshligini oshirish, oliy ta'lim muassasalarining mavjud salohiyatidan unumli foydalanish va samaradorligini oshirish, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan ilmiy tadqiqot ishlariga yetarlicha e'tibor qaratilmagan. Bu esa o'z navbatida, mazkur yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borish zarurligini taqozo etadi.

METODOLOGIYA

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, tahlil va sintez, statistik guruhlash, monografik tahlil, qiyosiy tahlil va SWOT tahlili usullari qo'llanilgan.

TAXLIL VA NATIJALAR

Innovatsion menejment – bu oliy ta'lim muassasalarining samaradorligini oshirish va ularning raqobatbardoshligini ta'minlash uchun yangi texnologiyalar, metodlar va boshqaruv vositalarini joriy etish jarayonidir. O'zbekistonda oliy ta'lim sohasidagi islohotlar doirasida innovatsion menejment konsepsiyalari joriy etilayotgani ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Jahon tajribasidan kelib chiqib, innovatsion menejment asosan quyidagi elementlardan tashkil topgan (1-jadval).

1-jadval

Innovatsion menejmentning oliy ta'limdagi elementlari¹

Elementlar	Qo'llanilishi
Raqamli transformatsiya	Universitetlarning ta'lim jarayonini onlayn platformalar, sun'iy intellekt va axborot texnologiyalari yordamida modernizatsiya qilish
Innovatsion ta'lim metodlari	Masofaviy va gibrid ta'lim tizimlari, interaktiv usullar, adaptiv o'qitish modellarini joriy etish
Ta'lim va sanoat hamkorligi	Akademik muassasalar va biznes sektori o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish, talabalarni amaliyotga yo'naltirish
Ilmiy-tadqiqot va startup ekotizimi	Universitetlarda tadqiqotlarni tijoratlashtirish, ilmiy laboratoriyalarni biznesga integratsiya qilish


O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimiga oid so'nggi statistik ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak 2024-yil yakunida O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalari soni 219 tani tashkil etmoqda shulardan 31 tasi xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari filiallari, 93 tasi esa nodavlat oliy ta'lim muassasalaridir. Bugungi kunda Oliy ta'lim muassasalarida 1 million 300 ming nafardan ziyod talaba tahsil olmoqda, bu esa yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi 42 foizga oshganligini ko'rsatadi[8]. Ushbu ko'rsatkichlarning natijasida bugungi kunda respublikamiz OTM lari erkin raqobat kurashida raqobatbardoshlikka erishishlari uchun innovatsion menejmentning elementlaridan samarali foydalanishlari zarur. Ushbu tizimni OTM faoliyatiga joriy etish orqali OTM raqobatbardoshligini oshirish imkoniyati ortadi(1-rasm).

1-rasmda innovatsion menejment tizimini joriy etish natijasida oliy ta'lim tizimidagi raqobatbardoshlikni oshirish jarayonini aks ettiradi hamda jarayonning asosiy bosqichlari va ular o'rtasidagi bog'liqliklar tasvirlangan. Innovatsion menejment tizimi joriy etilgandan keyin ta'lim sifati yaxshilanishi va ilmiy-tadqiqot faoliyatining kuchayishi oliy ta'limni taraqqiy ettirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim muassasalari raqamli ta'lim texnologiyalarini joriy etish, ta'lim sifatini oshirish va universitetlarning xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallashini ta'minlashga qaratilgan islohotlarni amalga oshirilmoqda. Masalan:

¹ Muallif ishlanmasi

2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasiga ko'ra, oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirish uchun innovatsion boshqaruv va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish belgilangan.



1-rasm. Innovatsion menejment tizimini joriy etish orqali oliy ta'lim raqobatbardoshligini oshirish¹.

Xalqaro tajribadan kelib chiqib, Singapur, Germaniya va AQSH universitetlari o'z ta'lim modellarini yangi texnologiyalar va innovatsiyalarga asoslab transformatsiya qilinganligi bugungi kunda O'zbekiston Respublikasidagi oliy ta'lim muassasalarining nafaqat ichki balki tashqi bozorlarda ham raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Innovatsion menejment tizimini joriy etish orqali oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha quyidagi aniq misollarni keltirish mumkin:

Raqamli transformatsiya – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti so'nggi yillarda elektron ta'lim platformalarini joriy etib, talabalar va professor-o'qituvchilar uchun "Moodle" onlayn ta'lim tizimini keng foydalanishga berdi. Bu esa talabalarga masofaviy ta'lim olish va elektron kitoblardan foydalanish imkonini berdi. Buning natijasida talabalarining ta'lim olish imkoniyatlari kengaydi, masofaviy ta'lim samaradorligi oshdi.

Startuplar va innovatsiya markazlari –Inha universiteti talabalarni IT-startuplar yaratishga yo'naltirish maqsadida "IUT Innovation Center" tashkil etdi. Bu markazda yosh tadbirkorlar o'z innovatsion g'oyalarini rivojlantirish va venchur investitsiyalarni jalb qilish imkonini yaratilishi talabalar o'z startuplarini yaratib, ularni bozorga chiqarish innovatsion tadqiqotlar soni ortishi universitetining IT sohasidagi nufuzi ortib, mehnat bozori uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash samaradorligi oshishiga sabab bo'ldi.

Xalqaro hamkorlik – Toshkent davlat yuridik universiteti xalqaro universitetlar bilan hamkorlikni kuchaytirish maqsadida "Erasmus+" va "DAAD" kabi Yevropa Ittifoqi va Germaniya ta'lim dasturlari bilan ishlamoqda. Universitet talabalari xorijiy universitetlarda o'qish imkoniga ega bo'lish bilan birga talabalar xalqaro darajada ta'lim olish imkoniga, universitetning xalqaro akademik hamkorligi kuchayishiga va

¹ Muallif ishlanmasi

bitiruvchilarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshiga asosiy omil bo'lib xizmat qildi.

Innovatsion menejmentni joriy etish orqali erishilgan natijalar Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, innovatsion menejmentni joriy etish orqali oliy ta'lim muassasalari quyidagi yutuqlarga erishishi mumkin: Ta'lim sifatining oshishi bunda, interaktiv va raqamli texnologiyalar joriy etilishi natijasida talabalarning bilimni baholash tizimi yaxshilanadi. Mehnat bozoriga moslashuv ya'ni universitet bitiruvchilari yangi innovatsion ko'nikmalarga ega bo'lib, mehnat bozorida yuqori raqobatbardoshlikka erishadi. Innovatsion menejment mexanizmlarini joriy etgan universitetlar xalqaro reytinglarda yuqori o'rin egallash imkoniyatiga ega bo'ladi. Innovatsion menejment tizimi orqali universitetlarda ilmiy-tadqiqot faoliyati kengayib, startaplar va yangi tadqiqot laboratoriyalari paydo bo'ladi. Ta'lim jarayonining raqamlashtirilishi natijasida elektron ta'lim platformalari, sun'iy intellekt va masofaviy ta'lim modellarining joriy etilishi ta'limni yanada samarali qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion menejment tizimini joriy etish strategik ahamiyatga ega. Jahon tajribasi va O'zbekistondagi islohotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya, ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish, tadqiqot va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash universitetlarning xalqaro nufuzini oshirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha oliy ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan maqsadlarga erishish uchun oliy ta'lim muassasalari innovatsion boshqaruv modellarini joriy etishi zarur. Bu esa ta'lim sifatini oshirish, mehnat bozori talablariga javob beradigan mutaxassislar tayyorlash va oliy ta'lim muassasalarining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, innovatsion menejment tizimi orqali oliy ta'lim muassasalari quyidagi yutuqlarga erishishi mumkin:

- raqamli texnologiyalarning joriy etilishi orqali ta'lim jarayoni samaradorligi oshadi;
- universitetlar va sanoat hamkorligini kuchaytirish bitiruvchilarning mehnat bozoridagi talabgarligini oshiradi;
- ilmiy-tadqiqot va startaplarni qo'llab-quvvatlash universitetlarning global raqobatbardoshligini oshiradi;
- xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallash uchun innovatsion yondashuvlar ishlab chiqiladi.

O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirish uchun innovatsion menejment strategiyasini ishlab chiqish, har bir oliy ta'lim muassasasi o'z strategik rejasini yaratib, innovatsion menejmentni joriy etishni aniq belgilashi lozim. Raqobatbardoshlikni oshirish uchun universitetlar innovatsion ta'lim modellarini ishlab chiqishi va tatbiq etishi kerak. Oliy ta'lim muassasalarida raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirishi, masofaviy ta'lim platformalarini takomillashtirish va sun'iy intellekt asosidagi ta'lim modellarini joriy etishlari,

elektron kitoblar, virtual laboratoriyalar va blokcheyn texnologiyalarini qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirish imkoniyatiga ega.

O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirish uchun innovatsion menejment tizimini samarali joriy etish lozim. Bu jarayon ta'lim jarayonining raqamlashtirilishi, xalqaro hamkorlik, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va sanoat bilan integratsiyani kuchaytirish orqali amalga oshiriladi. Taqdim etilgan takliflar universitetlarning strategik rivojlanishiga, ta'lim sifatini oshirishga va mamlakatning innovatsion iqtisodiyotga o'tish jarayonini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019-yildagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son. <https://lex.uz/docs/4545884>

2. Giacomo Andolfi "Development and innovation management on higher education institutions" European Journal of Public Health Studies., Volume 1 | Issue 1 | 2016.

3. Nur Aedi, Nurrohmatul Amaliyah, Muhammad Faizal Bin, Asep Saeful Rohman, Nugraha Suharto, Abubakar Ditrana, Nurdin., "The Innovation Management Model for Higher Education", Journal of Positive Psychology & Wellbeing., 2022, Vol. 6, No. 1, 2457 – 2466.

4. Yuliia Matvieieva, Svitlana Rybalchenko, Eduard Bohdan., "Innovative management strategies of higher education institutions in the conditions of digital transformation" Economic Sustainability and Business Practices, 1(1), 2024.

5. Т.В. Ключкова., "Конкурентоспособность высшего учебного заведения в условиях цифровой экономики", Вестник МФЮА № 4 / 2017.

6. Гаранин М.А., "Трансформация университета в центр пространства внедрения инноваций", Russian Journal of Innovation Economics., №3 2019 (July-September).

7. Маннопова Э.Т. "Повышение конкурентоспособности высших образовательных учреждений за счет интеллектуальных информационных систем в управлении", Iqtisodiyotda innovatsiyalar, 1-son 3-jild va B. Shermuhammadov "Oliy ta'lim tizimi va mehnat bozorining o'zaro aloqadorligi asosida ta'lim sifatini boshqarishning uslubiy asoslarini takomillashtirish", Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil ilmiy elektron jurnali IX son - sentyabr, 2024.

8. https://kun.uz/kr/news/2020/06/16/ozbekiston-oliy-talim-tizimi-boyicha-statistik-malumotlar-ochiqlandi?utm_source=chatgpt.com